



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



TASHKILOTNI RIVOJLANTIRISHDA ILMIIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULI VA ALGORITMI

Yakubov Ozod Shavkat o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti

E-mail: ozodzonakubov@gmail.com; Tel: +998908746063

S.J.Yaxyayev

Qarshi davlat texnika universiteti dotsent, p.f.f.d.(PHD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tashkilotlarning innovatsion faoliyati, ilmiy faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasi ko'rib chiqilgan.

Metodologiyada hisobga olingan asosiy ko'rsatkichlar innovatsion faollik darajasi, dolzarblig, innovatsion usullarni joriy etishdagi ilmiy-ijtimoiy natijalar keltirilgan.

Tashkilotlarni yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan ham ushbu maqolada fikr mulohazalar keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Ilmiy faoliyat, baholash usullari, raqamli iqtisodiyot, avtokratik boshqaruv, baholash faoliyati, raqobatbardoshlik, global, samaradorlik.*

Аннотация

В данной статье рассматривается методика оценки эффективности инновационной деятельности и научной деятельности организаций в Республике Узбекистан. Основными показателями, учитываемыми в методике, являются уровень инновационной деятельности, ее востребованность, научные и социальные результаты внедрения инновационных методов.

В данной статье также даются комментарии по принимаемым решениям о дальнейшем развитии организаций.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Научная деятельность, методы оценки, цифровая экономика, автократическое управление, оценочная деятельность, конкурентоспособность, глобальный, эффективность.*

Annotatsion

This article considers the methodology for assessing the effectiveness of innovative activity and scientific activity of organizations in the Republic of Uzbekistan. The main indicators taken into account in the methodology are the level of innovative activity, its relevance, and scientific and social results of implementing innovative methods. This article also provides comments on decisions made on the further development of organizations.

KEYWORDS: *Scientific activity, assessment methods, digital economy, autocratic management, assessment activities, competitiveness, global, efficiency.*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



KIRISH

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikani innovatsiyalar sohasidagi global reytingdagi ilg'or 50 ta mamlakatlar ro'yxatiga kiritishga qaratilgan strategik dastur tasdiqlandi, ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etildi, ilm-fan sohasida yuqori malakali kadrlarni moliyaviy rag'batlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratildi.



Oliy ta'lim tizimi muassasalari, shuningdek bo'ysunuvida ilmiy tashkilotlar bo'lgan vazirlik, idoralar va tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida:

ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishda qatnashadi;

ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar kiritadi;

davlat ilmiy dasturlari, shuningdek xalqaro dasturlarni ishlab chiqishda qatnashadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi;

o'z bo'ysunuvidagi tegishli ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda samarali hamda raqobatbardosh ilmiy faoliyat yuritilishini ta'minlaydi;

tegishli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy darajali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi, ilmiy faoliyat yurituvchilarni rag'batlantirib boradi;

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'z bo'ysunuvidagi ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlab boradi; ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtiradi va ular egalarini rag'batlantiradi, shuningdek yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, ularning samarali ilmiy faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

. Ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning turli xil usullari keltirib o'tilgan.

P.N. Zavlining fikriga ko'ra innovatsiyalar tashkilotda ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini baholab borishi zarur.

P.A. Fatxuddinov esa innovatsion faoliyat samaradorligini ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-ekologik nuqtai nazaridan tahlil qilishni taklif etadi.

Yu. P. Aniksin fikriga ko'ra samaradorlikni aniqlash uchun innovatsion faollik koefitsiyentidan foydalanish yetarli deb hisoblaydi.



Bugungi kunda mamlakatimizdagi tashkilotlar faoliyatini samaradorligini yanada oshirish maqsadida AKT rivojlanishi muhim o'rin tutmoqda. Shu jumladan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 15.06.2021 yildagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 373-son qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq,

Quyidagilar tasdiqlandi:

Davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda hududlarni raqamli transformatsiya holatini reyting baholash tartibi;

- Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishni baholash, soha ko'rsatkichlari hisobini yuritishni samarali tashkil etish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rinlarda – tashkilotlar) rasmiy veb-saytiga qo'yiladigan asosiy talablar.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

- raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish sohasida vakolatli organ hisoblanadi;
- raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish doirasida davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha loyihalari va texnik hujjatlarini, shuningdek NHH loyihalarini majburiy ekspertizadan o'tkazadi.

Qabul qilingan Nizomga muvofiq reyting baholash reyting ko'rsatkichlari va indikatorlari yordamida raqamli rivojlanish holatini baholash orqali tashkilotlar hamda hududlarni eng yuqori natijadan eng past natijagacha saralangan ro'yxatdan o'rnini belgilashdan iborat bo'ladi.

NIS.UZ axborot tizimining egasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hisoblanadi, u tizimning sifatli va uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. NIS.UZ tizimini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirish Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

AKTlarni joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi aniqlangan ko'rsatkichlarning miqdoriga qarab, 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, «qizil», «sariq» va «yashil» toifalarga ajratiladi.

Reyting baholash yakunlari bo'yicha AKTlarni joriy etish va rivojlantirish samaradorligi darajasi «yashil» deb topilgan tashkilotlarning ijobiy ish tajribasini boshqa tashkilotlar o'rtasida ommalashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'riladi.

Tashkilotlar har hisobot davri yakunlangandan keyingi oyning 15-sanasiga qadar IS NIS.UZ axborot tizimiga ishonchli ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritilishini ta'minlaydilar.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi baholashda ishtirok etadigan mas'ul davlat organlari bilan birgalikda har bir hisobot davri yakunidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar NIS.UZ axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar asosida baholash o'tkazadi hamda ushbu oyning 30-sanasiga qadar baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

«O'zkomnazorat» davlat inspeksiyasi NIS.UZ axborot tizimiga tashkilotlar tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligiga muvofiqligi yuzasidan o'rganishlar va tekshirishlar olib boradi.

Tashkilotlar tomonidan noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning «NIS.UZ» axborot tizimiga kiritilganligi, ularning o'z vaqtida kiritilmaganlik holatlari aniqlanganda, tegishli rahbarlarga nisbatan intizomiy choralar qo'llaniladi.





NATIJALAR

Bugungi kunda yurtimizda baholash faoliyatida davlat ishtirokini qisqartirish rejalashtirilmoqda. Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi portalida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, shuningdek investorlar uchun shaffof va tushunarli tarzda aktivlarni baholash, xalqaro standartlarga asoslangan baholash faoliyatini yuritish bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradigan yangi tahrirdagi «Baholash faoliyati to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokama qilish uchun joylashtirilgan. «Baholash faoliyati to'g'risida»gi Qonunning amaldagi tahririda davlat monopoliya o'rin egallagan bo'lib, professional jamoat tashkilotlarining ushbu masalalarda ishtirok etish imkoni minimallashtirilgan.

Norma'ning yozishicha, Qonun matnida ko'p sonli turfa xil qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadigan havolaki normalar talaygina. Bu baholash faoliyati sohasida huquqni qo'llash amaliyoti birligini ta'minlashni qiyinlashtiradi, bu esa ko'rsatilayotgan baholash xizmatlari sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yangi qonun loyihasini ishlab chiquvchilar to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan normalardan foydalandilar. Bunda loyiha 59 moddadan iborat bo'lib, 9 bobga ajratilgan (amaldagi Qonunda – 22 ta modda). Qonun loyihasining maqsadi – davlat ishtirokini kamaytirish, bir vaqtning o'zida professional jamoat tashkilotlarining rolini oshirish, baholash sifatini va ko'rsatilayotgan baholash xizmatlari uchun javobgarlikni oshirish yo'li bilan baholash faoliyatini davlat tomonidan boshqarishdan o'zini o'zi boshqarishga bosqichma-bosqich o'tish. Xalqaro baholash standartlari (2020 yil yanvarda kuchga kirgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) prinsiplari qonun loyihasiga asos bo'lgan. Loyihada quyidagilar nazarda tutilgan: baholovchi tashkilotlarning davlat tomonidan litsenziyalanishini bekor qilish va baholovchi tashkilotlarning professional jamoat tashkilotlariga a'zoligi tushunchasini joriy etish; baholovchi tashkilotlarga jamoat tashkilotlarini mustaqil ravishda tuzish imkonini berish. Professional jamoat tashkilotlarining baholash faoliyati sohasidagi funktsiya va vakolatlari ancha kengaytirilgan. Xususan, qonun loyihasida quyidagilar nazarda tutilgan:

ularga o'z a'zolarining qonun hujjatlarini bajarishlari ustidan nazorat qilish vakolatini berish;

baholash to'g'risidagi hisobotlarning ishonchliligiga oid masalalarni sudgacha ko'rib chiqish;

o'z a'zolarining reytingini yuritish;

a'zolikka oid talablarni, professional xulq-atvor kodeksini, baholash xizmatlarining sifatini oshirish uchun uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

jamoat tashkilotlarining baholash faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi.

Loyihada tartib-taomilga oid barcha masalalarni avtomatlashtirish va inson omilini imkon qadar istisno qilish nazarda tutilgan. Buning uchun maxsus axborot resursi – real vaqt rejimida ishlovchi baholash faoliyatining yagona axborot platformasi (BFYaAP) tashkil etiladi. BFYaAP baholash bo'yicha hisobotlar, ekspert xulosalari, baholovchi tashkilotlar va baholovchilarni tanlash bo'yicha elektron tenderlarni o'tkazish mexanizmi haqidagi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Resurs baholash masalalariga taalluqli barcha dolzarb, ishonchli va doimiy yangilanadigan axborotni e'lon qilib, uning barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlaydi. Bunda baholovchilarni sertifikatliyadan o'tkazish, ularga toifalar berish, sud organlari so'rovlari bo'yicha bahsli vaziyatlarda baholash bo'yicha materiallarni ko'rib chiqish, baholash faoliyati sohasidagi NHH, shu jumladan milliy baholash standartlarini ishlab chiqish davlat zimmasida qoladi. «Baholash faoliyatini tartibga solish» bobida Vazirlar Mahkamasi, vakolatli organ, shuningdek u tashkil etadigan komissiyalarning vakolatlari alohida sanab o'tilgan. Bunda vakolatli davlat organi tomonidan akkreditatsiya qilingan jamoat tashkilotlarining vakillari komissiyalar ishiga jalb qilinishi kerakligi belgilangan.

Loyiha o'zgartirilishi, unga qo'shimchalar kiritilishi yoki rad etilishi mumkin.

XULOSA

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkilotlar va hududlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalarini umumlashtiradi, shuningdek baholash faoliyatida ishtirok etadigan davlat organlarining umumiy boshqaruvini amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi.

Belgilanishicha, raqamli transformatsiya holatini reyting baholash har uch oy yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi va uning natijalari «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya yig'ilishlarida tanqidiy muhokama qilinadi. Davlat buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy loyihalar monitoringi ularning tasdiqlangan rejaga ko'ra bajarilishini, moliyaviy mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishini, belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini va olingan natijalarning samaradorligini baholashni o'z ichiga oladi.

Davlat buyurtmasi asosida bajarilayotgan ilmiy loyihalar monitoringi natijalari xulosalaridan ilmiy yo'nalishlarning istiqbolini belgilash, ilmiy loyihalarni moliyalashtirishni davom ettirish yoki to'xtatish bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi ilmiy tashkilotlar qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Завлин П.Н. , Васильев А.В. Оценка эффективности инноваций. СПб, Изд-во "Дом Бизнес-пресса" 1998.-216 с.
2. Фатхудинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник для вузов.- СПб. Питер, 2013.- 448 с.
3. Pallister I. (2010) Innovatsion Update 08-10: Measuring Innovation.
4. Lex.Uz . O'RQ-576-son 29.10.2019. qarori. 28 –modda 2-qism